

MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA TIBBIY TURIZM ORQALI YANGI ISH O‘RINLARI YARATISH MEXANIZMLARI

Yusupova Mehribon O‘ktamovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya

Mazkur maqolada mintaqaviy iqtisodiyotda tibbiy turizm orqali yangi ish o‘rinlari yaratish mexanizmlari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida tibbiy turizmning bandlikka ta’siri bevosita, bilvosita va induksion yo‘nalishlar bo‘yicha baholandi. Xalqaro tajriba asosida sektorning multiplikatsion samarasi hamda xizmatlar eksportiga qo‘shayotgan hissasi aniqlandi. O‘zbekiston sharoitida tibbiy turizmni rivojlantirishning huquqiy va institutsional asoslari o‘rganildi. Natijalar mintaqaviy darajada klaster tizimini shakllantirish, infratuzilmani rivojlantirish va kadrlar salohiyatini oshirish muhim ekanini ko‘rsatdi. Tadqiqot yakunida tibbiy turizm orqali bandlikni kengaytirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: tibbiy turizm, mintaqaviy iqtisodiyot, bandlik, ish o‘rinlari, klaster, xizmatlar eksporti, multiplikator.

Аннотация

В статье был проанализирован механизм создания новых рабочих мест в региональной экономике за счёт развития медицинского туризма. В ходе исследования влияние сектора на занятость было оценено по прямым, косвенным и индуцированным направлениям. На основе международного опыта была выявлена мультипликативная роль медицинского туризма и его вклад в экспорт услуг. Были изучены институциональные и правовые основы развития сектора в Узбекистане. Результаты показали значимость формирования кластеров, развития инфраструктуры и повышения квалификации кадров на региональном уровне. По итогам исследования разработаны практические рекомендации по расширению занятости через медицинский туризм.

Ключевые слова: медицинский туризм, региональная экономика, занятость, рабочие места, кластер, экспорт услуг, мультипликатор.

Abstract

The article analyzed the mechanisms of job creation in the regional economy through the development of medical tourism. The study assessed the impact of the sector on employment through direct, indirect, and induced effects. Based on international experience, the multiplier effect of medical tourism and its contribution to service exports were identified. The institutional and legal framework for sector development in Uzbekistan was examined. The results showed the importance of cluster development, infrastructure improvement, and workforce capacity building at the regional level. The study proposed practical recommendations aimed at expanding employment opportunities through medical tourism.

Keywords: medical tourism, regional economy, employment, job creation, cluster, service export, multiplier.

KIRISH

Mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda yangi ish o'rinlari yaratish strategik vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Yuqori daromad keltiruvchi va doimiy ravishda kengayib boruvchi xizmat ko'rsatish sohalari ichida tibbiy turizm o'ziga xos o'rin egallaydi. Sektor ham xizmatlar eksporti, ham mahalliy mehnat bozorining kengayishini yaxlit ravishda qo'llab-quvvatlovchi yo'nalish sifatida xalqaro tajribada keng qo'llanilmoqda. Statista ma'lumotlariga ko'ra, jahon tibbiy turizm bozori 2024-yilda 47 milliard AQSh dollariga baholangan bo'lib, 2029-yilga borib uning hajmi 111 milliard dollardan oshishi prognoz qilingan [5]. IMARC Group hisobotida bozor 2024-yilda 144,5 milliard dollar darajasida bo'lganligi va 2033-yilga borib 704,8 milliard dollarga yetishi taqdim etilgan [7]. Ushbu salohiyat tibbiy turizmni mintaqalardagi bandlik va daromad muvozanatini qayta shakllantirishga qodir iqtisodiy quvvat sifatida e'tirof etilishini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasida tibbiy va sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati keng qamrovli xarakter kasb etgan. "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" doirasida belgilangan 100 ta maqsadning 55-bandi tibbiy xizmatlar orqali turizm sohasi daromadini sezilarli darajada oshirish vazifasini ilgari surgan [2]. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi tibbiyot va ta'lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard AQSh dollariga yetkazishni nazarda tutadi [3]. Sanab o'tilgan vazifalarning amaliy ijrosi mintaqaviy darajada faol ish o'rinlari shakllantirishni, klaster tipidagi xizmat tarmoqlarini joriy etishni hamda mahalliy aholining bandligini ta'minlovchi ko'p tarmoqli iqtisodiy konturni rivojlantirishni talab qiladi.

Maqolaning maqsadi mintaqaviy iqtisodiyotda tibbiy turizm orqali yangi ish o'rinlari yaratish mexanizmlarini nazariy hamda amaliy jihatdan asoslash bilan belgilanadi. Tadqiqot vazifalari sektorlararo bog'lanishlar va multiplikatsion ta'sirning iqtisodiy mantiqini ochib berish, xorijiy mamlakatlar tajribasini umumlashtirish, mahalliy huquqiy bazani tahlil qilish hamda O'zbekiston sharoiti uchun mos institutsional modellarni taklif etish doirasida shakllantirilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tibbiy turizmning iqtisodiy ta'siriga oid ilmiy adabiyotlar tarixiy nuqtai nazardan turli yondashuvlarni shakllantirgan. Beladi va hamkasblari 47 davlat ma'lumotlari asosida tibbiy turizmning iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sirini empirik isbotlashgan: ta'sir OECDga a'zo bo'lmagan davlatlarda kuchliroq namoyon bo'lishi aniqlangan [9]. Mualliflar tomonidan amalga oshirilgan tahlilda sektor mehnat unumdorligi va xizmatlar eksporti orqali yalpi ichki mahsulotning o'sishiga aniq hissa qo'shishi ko'rsatilgan.

Klijs va boshqalarning Malayziya bo'yicha o'tkazgan input-output modellashtirishi tibbiy turizmning mintaqaviy va shtat darajasidagi iqtisodiy o'sishga ijobiy hissasini empirik tasdiqlagan [8]. Tang va Abdullah tomonidan qo'llanilgan kointegratsiya bog'liqlik testlari tibbiy turizmdan iqtisodiy o'sishga bir tomonlama Granger sababiyligi mavjudligini isbotlashgan, bu esa sektorning makroiqtisodiy ko'p tarmoqli foyda keltirishi bo'yicha qo'shimcha dalil sifatida qabul qilinishi mumkin [8]. Patients Beyond Borders manbasiga ko'ra jahon tibbiy turizm bozori 2019-yilda 74-92

milliard AQSh dollari oralig'ida baholangan va 2027-yilga borib 207,9 milliard dollardan oshishi prognoz qilingan [8].

Mahalliy ekspert U.Xo'jaqulovning tahlili xalqaro tibbiy turizm bozorining 2021-2022-yillarda o'rtacha 21 foizga o'sganini hamda Hindiston tajribasining O'zbekiston uchun namuna sifatida o'rganilishi maqsadga muvofiqligini ko'rsatgan [4]. Hindiston bozoridagi keng amaliyot - xususiy klinikalar tarmog'i, tibbiy viza tartibining sezilarli soddalashtirilishi, xalqaro JCI akkreditatsiyasiga keng qatlam tibbiy muassasalarining kirishi - milliy iqtisodiyotning ulkan eksport pozitsiyasini ta'minlagan.

GD Assist tahlilida tibbiy turizm "ijtimoiy multiplikator" sifatida tavsiflanadi: bitta zamonaviy shifoxonaning faoliyati farmatsevtika, jarrohlik asbob-uskunalar ishlab chiqarish, mehmondo'stlik, transport va sug'urta sektorlarida qo'shimcha ish o'rinlarini vujudga keltiradi [10]. Sektorning kapital sig'imi yuqori bo'lganligi va malakali kadrlar talab qilishi uni sof daromadli sayyohlik turlaridan tubdan ajratib turadi: tibbiy turizm investitsiya texnologik yaratishni va inson kapitaliga muntazam yo'naltirilgan xarajatlarni rag'batlantiradi [8]; [10].

METODOLOGIYA


Mazkur tadqiqotda mintaqaviy iqtisodiyotda tibbiy turizm orqali ish o'rinlari yaratish mexanizmlarini o'rganish uchun kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Nazariy tahlil asosida tibbiy turizmning iqtisodiy mohiyati va bandlikka ta'siri umumlashtirildi. Qiyosiy tahlil yordamida rivojlangan davlatlar tajribasi O'zbekiston amaliyoti bilan solishtirildi. Statistik ma'lumotlar xalqaro tahlil markazlari hisobotlari asosida tanlab olinib, sektorning o'sish sur'atlari va bandlik ko'rsatkichlari baholandi.

Bandlik multiplikatori yondashuvi qo'llanilib, ish o'rinlari bevosita, bilvosita va induksion guruhlarga ajratildi. Tizimli yondashuv orqali tibbiy turizmning infratuzilma, xizmatlar va kadrlar bilan bog'liqligi o'rganildi. Umumlashtirish metodi asosida tahlil natijalari yakuniy xulosalarga keltirildi. Ushbu metodlar tadqiqot natijalarining asoslanganligini va amaliy ahamiyatini ta'minladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqaviy iqtisodiyotda tibbiy turizm orqali yangi ish o'rinlari yaratish mexanizmi to'rt o'zaro bog'liq tarkibiy qismdan iborat bo'ladi: birlamchi tibbiy xizmat ko'rsatish, qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma, malakali kadrlar tayyorlash tizimi va xalqaro marketing-promotion. Har bir tarkibiy qism o'zining bandlik salohiyati va mintaqaviy iqtisodiyotga qo'shadigan qiymatga ega bo'lib, ularning muvofiqlashtirilgan harakati klaster tipidagi natijani vujudga keltiradi (1-rasm).

Xalqaro statistik ko'rsatkichlar tibbiy turizmning yirik mehnat hajmiga ega ekanini ko'rsatadi. Hindiston bozorida sektor 2022-yilda 16 milliard AQSh dollari daromad keltirgan va sohaga yaqin 167 ming nafar xodim jalb etilgan [10]. Tailand, Singapur va Turkiya kabi yetakchi davlatlar millat darajasidagi targ'ibot kampaniyalari, tibbiy viza imtiyozlari hamda xalqaro akkreditatsiyalash mexanizmlari orqali sektor jozibadorligini izchil oshirib bormoqda [6]. Mintaqaviy darajada tibbiy turizm asosida shakllanadigan ish o'rinlari ko'rsatkichi sektorning o'sish surati va xalqaro raqobat darajasi bilan bog'liq holda jadvalda umumlashtirilgan.



1-rasm. Mintaqaviy iqtisodiyotda tibbiy turizm orqali ish o`rinlari yaratish mexanizmi¹

1-jadval.

Jahon tibbiy turizm bozorining asosiy ko'rsatkichlari (2024-2035)²

№	Ko'rsatkich / Davlat	Qiymat / Tavsif	Manba
1	Jahon bozori hajmi, 2024-yil	47 mlrd AQSh dollari	Statista [5]
2	Jahon bozori prognozi, 2024-yil	111 mlrd AQSh dollaridan ortiq	Statista [5]
3	Bozor o'sish surati, foizda 2026-2035 yillar	14,1 (CAGR)	Grand View Research [6]
4	Aziya-Tinch okeanining ulushi, foizda	25,5 <	IMARC Group [7]
5	Turkiyaning ulushi, foizda 2025-yil	13,5	Grand View Research [6]
6	Hindistonda tibbiy turizm bandligi, 2022-yil	167 000 nafar xodim	The Hans India [10]
7	Hindiston bozor hajmi, 2022-yil	16 mlrd AQSh dollari	The Hans India [10]
8	O'zbekiston eksport maqsadi, 2030-yil	1,5 mlrd AQSh dollar (tibbiy va ta'lim turizmi)	UzTourism [3]
9	O'zbekiston xorijiy turist oqimi maqsadi, 2030-yil	15 mln nafar	UzTourism [3]

¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif tomonidan manbalar asosida tuzilgan.

O‘zbekistonda mintaqaviy darajada bandlikni shakllantirish uchta tarkibiy yo‘nalish bo‘yicha amalga oshirilmoqda. Birinchidan, tibbiy turizm klasterlari va mehmonxona tipidagi zamonaviy sanatoriylarni tashkil etish nazarda tutilgan [1]. Bu yo‘nalish davolash xizmatlari, mehmondo‘stlik va ko‘ngilochar sektorni birlashtirib, hududda kompleks ish o‘rinlari ochishni ta‘minlaydi. Ikkinchidan, davlat-xususiy sherikchilik tizimini chuqurlashtirish: tibbiyot va sog‘lomlashtirish muassasalari hamda sanatoriylar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini monitoring qilish uchun elektron platforma yaratilishi belgilangan, reyting tizimida 70 va undan yuqori ball olgan muassasalarning xalqaro maydondagi targ‘iboti Turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi [1]. Uchinchidan, kadrlar salohiyatini oshirish: stomatologiya, ortopediya, an‘anaviy va xalq tabobati, sanatoriy-kurort yo‘nalishlarida O‘zbekistonning tarixiy mavqei mavjud bo‘lib, akupunktura, gidroterapiya, loy terapiyasi singari muolajalar mintaqalarda ish o‘rinlari yaratuvchi noyob xizmat turlarini shakllantiradi [4].

Iqtisodiy ifoda nuqtai nazaridan tibbiy turizmning bandlik multiplikatori quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$N_{total} = N_{direct} + N_{indirect} + N_{induced}$$

Bu yerda:

N_{total} - yaratilgan jami ish o‘rinlari;

N_{direct} - bevosita tibbiy va davolash xizmatlari sohasidagi bandlik;

$N_{indirect}$ - turizm, transport, ovqatlanish, tarjima va savdo kabi sektorlarda yuzaga keluvchi bilvosita ish o‘rinlari;

$N_{induced}$ - tibbiy turizm sohasida band bo‘lgan xodimlar daromadlari hisobidan shakllanadigan qo‘shimcha xizmatlar sektoridagi bandlikni anglatadi [9]; [10].

Mintaqaviy darajada mazkur mexanizmning samarali ishlashi quyidagi omillar bilan ta‘minlanadi: zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi (klinika, sanatoriy va mehmonxonalar), xalqaro standartlarga muvofiq sertifikatlash tizimi (jumladan, JCI), xorijiy tillarni biluvchi tibbiyot xodimlarini tayyorlash, viza va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish hamda raqamli platformalar orqali bemorlarni jalb etish [1]; [6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqaviy iqtisodiyotda tibbiy turizm orqali yangi ish o‘rinlari yaratish mexanizmi to‘rt asosiy yo‘nalish - bevosita tibbiy xizmatlar, qo‘llab-quvvatlovchi turizm-mehmondo‘stlik, kadrlar tayyorlash hamda xalqaro marketing tizimini yaxlit holda integratsiyalashni nazarda tutadi. Sektorning multiplikatsion ta‘siri uni mintaqalardagi bandlikni oshirishning ustuvor manbalaridan biriga aylantiradi. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 23-sentabrdagi Qarori va “O‘zbekiston - 2030” strategiyasidagi maqsadli ko‘rsatkichlar tibbiy turizm sohasini yangi sifat darajasiga olib chiqishga huquqiy hamda institutsional zamin yaratdi[1].

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi. Birinchidan, hududiy darajada tibbiy turizm klasterlarini shakllantirish va ulardagi mahalliy tibbiyot muassasalari, sanatoriylar, mehmonxonalar hamda turoperatorlar o‘rtasida

shartnomaviy tarmoqni tashkil etish lozim. Ikkinchidan, ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash markazlarini barpo etish - chet tillarini biluvchi shifokorlar, hamshiralar, tarjimon-koordinatlar va tibbiy turizm bo'yicha menejerlar tayyorlashga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Uchinchidan, xalqaro akkreditatsiya (JCI va boshqalar) jarayoniga kirayotgan xususiy klinikalar uchun davlat tomonidan moliyaviy hamda konsultatsion qo'llab-quvvatlash mexanizmini joriy qilish iqtisodiy jihatdan oqlanadi.

To'rtinchidan, mintaqalarning tabiiy salohiyatini (mineral suvlar, iqlim sharoiti, ekologik toza joylar) hisobga olib, ixtisoslashgan davolash yo'nalishlari (kardiologiya, ortopediya, stomatologiya, sog'lomlashtirish, an'anaviy tabobat) bo'yicha hududiy brendlash strategiyasini ishlab chiqish lozim. Beshinchidan, bemorlarni jalb etishga yo'naltirilgan raqamli ekotizimlarni rivojlantirish - elektron rezervatsiya, telemeditsina konsultatsiyalari, ko'p tilli bemor xizmati platformalari - sektor xarajatlarini optimallashtirish bilan birga xalqaro raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi. Oltinchidan, bandlikning multiplikator effektini hududiy mehnat bozori ko'rsatkichlari bilan bog'liq holda baholaydigan monitoring tizimini joriy etish davlat siyosati natijadorligini ob'ektiv o'lchashga xizmat qiladi.

Tibbiy turizmning kompleks rivojlanishi mintaqaviy iqtisodiyotda yangi ish o'rinlari yaratishning barqaror manbasi sifatida o'rin olishi mumkin. Tegishli huquqiy negiz, davlat-xususiy sherikchilik mexanizmi va malakali kadrlar bazasi mavjud sharoitda O'zbekiston tibbiy turizm xizmatlari eksporti bo'yicha mintaqaviy yetakchilar safiga qo'shilish va ichki bandlikni oshirishning real imkoniyatiga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-335-sonli "O'zbekiston Respublikasida tibbiy va sog'lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-7111500>

2. Pulatova D., Yo'ldosheva D. O'zbekistonda tibbiy turizm va uning iqtisodiyotga ta'siri // Pedagog jurnali, 2023. URL: <https://pedagogs.uz/ped/article/download/1296/1256/2487>

3. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi: "O'zbekiston - 2030" strategiyasi va turizm sohasi maqsadlari (rasmiy ma'lumot). URL: <https://gov.uz/oz/uzbektourism/sections/view/85358>

4. Xo'jaqulov U. Tibbiy turizmning rivojlanish istiqbollari // Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi, Review.uz tahlili. URL: <https://review.uz/uz/post/tibbiy-turizmning-rivojlanish-istiqbollari>

5. Statista. Value of the medical tourism market worldwide from 2024 to 2029 (Market Data Forecast). URL: <https://www.statista.com/statistics/1084720/medical-tourism-market-size-worldwide/>

6. Grand View Research. Medical Tourism Market Size & Share | Industry Report, 2035. URL: <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/medical-tourism-market>

7. IMARC Group. Medical Tourism Market Report 2025-2033. URL: <https://www.imarcgroup.com/medical-tourism-market>
8. Sajjadiankhah A., Kulkova I. va boshq. The asymmetric effects of medical tourism and information technology on economic growth: evidence from panel quantile regression // ScienceDirect, 2025. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1703494925000337>
9. Beladi H., Chao C.-C., Ee M.S., Hollas D. Does Medical Tourism Promote Economic Growth? A Cross-Country Analysis // Journal of Travel Research, SAGE. URL: <https://journals.sagepub.com/doi/10.1177/0047287517735909>
10. The Economic Impact of Medical Tourism: Opportunities and Challenges for Countries // The Hans India, 2025. URL: <https://www.thehansindia.com/life-style/health/the-economic-impact-of-medical-tourism-opportunities-and-challenges-for-countries-936797>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:	Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri:	Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri:	Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih:	Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar:	Sadikov Shoxrux Shuxratovich Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlartaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**